



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘rni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘rni.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalarida faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

“O‘ZBEKNEFTGAZ” AJ DA INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA ULARNI TIZIMLI TAHLIL QILISH.

ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В АО «УЗБЕКНЕФТГАЗ» И ИХ СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗЮ.

FACTORS FOR INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF INVESTMENT ACTIVITIES AT JSC “UZBEKNEFTGAZ” AND THEIR SYSTEMATIC ANALYSIS.

Valikulov Sherzod Zaynitdinovich Toshkent davlat texnika universiteti
Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasida doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola “O‘zbekneftgaz” AJ tononidan tayyorlangan xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan alohida moliyaviy hisobotlari asosida ko‘rib chiqilgan. Bunda kompaniyaning moliyaviy holati to‘g‘risidagi alohida hisobot va moliyaviy – iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlillari keltrilgan va kerakli xulosalar shakllantrilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion faoliyat, samaradorlik, moliyaviy – iqtisodiy ko‘rsatkichlar, audit, moliyaviy hisobot, korporativ boshqaruv, aktivlar, moliyaviy barqarorlik.

Данная статья рассмотрена на основе отдельных финансовых отчетов, составленных АО «Узбекнефтгаз» в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности. В работе представлены отдельный отчет о финансовом положении Компании, а также проведен анализ финансово-экономических показателей и сформированы соответствующие выводы.

Ключевые слова: Инвестиционная деятельность, эффективность, финансово-экономические показатели, аудит, финансовая отчетность, корпоративное управление, активы, финансовая стабильность.

This article is based on the separate financial statements of JSC “Uzbekneftgaz”, prepared in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). It presents an analysis of the Company’s separate statement of financial position and its financial and economic indicators, and formulates the necessary conclusions.

Keywords: investment activity, efficiency, financial and economic indicators, audit, financial report, corporate governance, assets, financial stability.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda yoqilg‘i-energetika tarmog‘i, xususan O‘zbekneftgaz aksiyadorlik jamiyatida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi, uglevodород qazib olish sharoitlarining murakkablashuvi hamda raqobat muhitining kuchayishi investitsiya resurslaridan oqilona foydalanishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekneftgaz AJning investitsion faoliyati jarayonlari va ularning iqtisodiy natijalari olinadi.

Tadqiqot predmeti – O‘zbekneftgaz AJda investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi omillar, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekneftgaz AJda investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish hamda samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun bir qator o‘zaro bog‘liq vazifalar belgilab olinadi. Avvalo,

investitsion faoliyatning iqtisodiy mazmuni va uning nazariy asoslari chuqur o‘rganiladi hamda mazkur tushunchaning zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni aniqlanadi.

Tadqiqot davomida investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi, shuningdek investitsion jarayonlarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va risklarni kamaytirish bo‘yicha aniq tavsiyalar beriladi.

[1] “O‘zbekneftgaz” AJ va uning shuba korxonalarining 2025 yil 30 iyun holatiga tuzilgan moliyaviy holati to‘g‘risidagi qisqartirilgan konsolidatsiyalashgan hisobotini tahlili keltirilgan bo‘lsa, J. Sh. Umurzakov [2] ushbu maqolasida O‘zbekneftgaz AJ misolida ko‘rib chiqilgan. Jamiyatning bozordagi o‘rni hamda moliyaviy-iqtisodiy faoliyatdagi mavjud xatarlarni SWOT tahlili asosida baholangan. Xorijlik olim, Myron Firman [3] Ukraina neft va gaz konlarining tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmining asosiy tamoyillarini ko‘rib chiqib, unda sanoatda operatsion samaradorlik, iqtisodiy barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta‘minlovchi asosiy komponentlarni tahlil qilgan.

Mazkur tadqiqotda “O‘zbekneftgaz AJ” va uning shuba korxonalarining 2019–2025 yillar davomidagi moliyaviy faoliyati kompleks ravishda o‘rganildi. Tahlil jarayonida mazkur ma‘lumotlar tizimli ravishda qayta ishlanib, asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasi aniqlashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi bir nechta o‘zaro bog‘liq yondashuvlarga asoslandi. Avvalo, gorizontal tahlil usuli yordamida moliyaviy ko‘rsatkichlarning yillar kesimidagi o‘zgarishi o‘rganilib, aktivlar, majburiyatlar va kapital hajmidagi o‘sish sur‘atlari aniqlandi. Ushbu usul orqali kompaniya aktivlarining sezilarli darajada oshgani, ayniqsa uzoq muddatli aktivlar hajmi keskin kengaygani asoslab berildi. Shuningdek, vertikal tahlil usuli qo‘llanilib, moliyaviy ko‘rsatkichlarning umumiy hajmdagi ulushi baholandi. Bu orqali aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlarning ustunligi, shuningdek kapital va majburiyatlar o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi aniqlandi.

Moliyaviy holatni chuqurroq baholash maqsadida moliyaviy koeffitsiyentlar tahlilidan foydalanildi. Tadqiqotda taqqoslama tahlil usuli ham muhim o‘rin egalladi. Ushbu yondashuv orqali 2022–2025 yillardagi daromadlar, xarajatlar va sof foyda ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtirilib, moliyaviy natijalardagi o‘zgarishlar aniqlashtirildi. Xususan, ayrim davrlarda operatsion foydaning pasayishi va keyingi yillarda tiklanishi tendensiyasi kuzatildi. Bu esa korxonada faoliyatida boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash imkonini berdi.

“O‘zbekneftgaz” AJ va uning shuba korxonalarining 2025 – yil 30 iyun holatiga tuzilgan moliyaviy holati to‘g‘risidagi qisqartirilgan konsolidatsiyalashgan hisobotini, shuningdek, shu sana bilan yakunlangan olti oylik davr uchun foyda yoki zarar, boshqa umumiy daromadlar, kapitaldagi o‘zgarishlar va pul oqimlari to‘g‘risidagi qisqartirilgan konsolidatsiyalashgan hisobotlarini hamda oraliq qisqartirilgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy ma‘lumotlarga ilovalar ko‘rib chiqilgan [1]. 1 – jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra Kompaniyaning moliyaviy holatini 2019 yildan 2025 yilgacha bo‘lgan davrda tahlil qilganda, jami aktivlar sezilarli darajada o‘sganligi aniqlanadi. Xususan, 2019 yilda 43,39 trillion so‘m bo‘lgan jami aktivlar 2025 yilga kelib 144,67 trillion so‘mga yetgan, ya‘ni 3,33 barobar oshgan. Ushbu o‘sish asosan uzoq muddatli va qisqa muddatli aktivlardagi o‘zgarishlar hisobiga yuzaga kelgan bo‘lib, shuningdek, kompaniyaning majburiyatlar va kapital strukturasi ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. Uzoq muddatli aktivlar 2019 yildan 2025 yilgacha 37,5 trillion so‘mdan 128,2 trillion so‘mga oshgan. Bu kompaniya uzoq muddatli investitsiyalarni kengaytirganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, asosiy vositalar va qo‘shma korxonalariga investitsiyalarning keskin o‘sishi kompaniyaning strategik rivojlanish va diversifikatsiya siyosatini namoyon etadi. Qisqa muddatli aktivlar ham sezilarli darajada o‘shib, 2019 yilda 5,89 trillion so‘m bo‘lsa, 2025 yilda 15,7 trillion so‘mga yetgan. Bu o‘shish naqd pul mablag‘lari, tovar-moddiy zaxiralar va qisqa muddatli qarzlarni hajmining kengayishi bilan izohlanadi.

Aktivlar tarkibini batafsil tahlil qilganda, uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi asosiy vositalar 2019 yildan 2025 yilgacha 21,3 trillion so‘mdan 75,6 trillion so‘mga oshgan. Bu o‘shish asosan ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va mavjud asosiy vositalarni modernizatsiya qilishga qaratilgan kapital xarajatlar hisobiga yuzaga kelgan. Qidiruv va baholashdagi aktivlar 425 milliard so‘mdan 1,55 trillion so‘mga ko‘tarilgan bo‘lib, bu yangi konlarni aniqlash va resurs bazasini kengaytirishga yo‘naltirilgan strategiyani ifodalaydi. Shuningdek, qo‘shma korxonalar va assotsatsiyalashgan kompaniyalarga investitsiyalar 2,5 trillion so‘mdan 45 trillion so‘mga oshgan, bu esa kompaniyaning

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 3-son 2026 yil

strategik hamkorlik va konsolidatsiya siyosatini namoyon etadi. Uzoq muddatli debitorlik qarzlari va berilgan avanslarda esa o‘zgaruvchan tendensiyalar kuzatiladi, bu kompaniya tomonidan uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlar va kredit siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

1 – jadval

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi alohida hisobot (milliard so‘mda)

	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.
AKTIVLAR							
Uzoq muddatli aktivlar							
Asosiy vositalar	21 263	25 352	29 817	33 106	33 593	74,053	75,620
Qidiruv va baholashdagi aktivlar	425	454	712	919	619	1,170	1,550
Qo‘shma korxonalar va assotsiatsiyalashgan kompaniyalarga investitsiyalar	2 510	2 523	2 530	2 521	2 541	45,600	45,084
Uzoq muddatli debitorlik qarzi	56	-	-	1 125	-	972	934
Uzoq muddatli berilgan avanslar	-	1 168	849	211	855	2,550	2,207
Docher xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar	8 586	8 495	9 131	9 615	8 209		
Bog‘liq tomonlarga berilgan qarzlilar	4 576	5 173	7 753	10 081	9 594	332	329
Boshqa uzoq muddatli moliyaviy aktivlar					1 960	126	296
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	80	249	86	67			
Jami uzoq muddatli aktivlar	37 496	43 416	50 877	57 646	57 371	125,860	128,228
Qisqa muddatli aktivlar							
Naqd pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	234	2 2021	1 672	2 068	790	1,283	3,737
Foydalanishda cheklangan pul mablag‘lari	566	271	196	166	752	931	550
Debitor qarzdorlik	1 509	2 604	2 301	3 042	6 117	3,124	2,902
Qisqa muddatli berilgan avanslar	1 557	395	334	300	307	1,094	1,327
Tovar-moddiy zaxiralar	456	419	290	272	611	3,490	4,756
Daromad solig‘ini oldindan to‘lash	25	182	28	250	250	19	40
Boshqa soliqlarni oldindan to‘lash	619	741	628	177	403		
Bog‘liq tomonlarga berilgan qarzlilar	550	1 583	1 439	361	7 360	39	47
Boshqa qisqa muddatli moliyaviy aktivlar					416	706	2,343
Boshqa qisqa muddatli aktivlar	377	513	547	575	697		
Jami qisqa muddatli aktivlar	5 894	8 699	7 435	7 211	17 704	10,686	15,702
JAMI AKTIVLAR	43 390	52 115	58 312	64 857	75 075	136,671	144,671
MAJBURIYATLAR VA KAPITAL							
Aksionerlik kapitali							
Ustav kapitali	14 629	21 536	21 536	21 243	21 273	21,274	22,250
Taqsimlanmagan foyda (yo‘qotish)	(4 709)	8 240	9 305	11 948	10 676	33,853	24,723
Jami kapital	9 920	29 776	30 841	33 192	31 949	66,677	68,589
Uzoq muddatli majburiyatlar							

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 3-son 2026 yil

Qarzlar	17 858	9 306	14 610	17 726	17 500	29,289	39,550
Rezervlar	1 525	1 415	1 514	1 219	982	1,435	1,454
Keyingi soliq to‘lovlari bo‘yicha majburiyatlar			981	228	68	983	1,377
Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar			-	-	9 998	12,956	10,232
Uzoq muddatli ijara majburiyatlari	1 523	1 536	1 523	1 428	1 428		
Jami uzoq muddatli majburiyatlar	21 228	12 257	18 628	20 602	29 973	44,836	52,786
Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari	5 993	7 255	3 999	5 224	5 166	7,705	6,702
Qarzlar	4 052	1 516	2 380	2 672	4 951	13,485	9,208
Rezervlar	49	24	17	27	27	59	172
Boshqa moliyaviy majburiyatlar	2 147	99	-	2 403	1 528	1,630	4,647
Boshqa joriy majburiyatlari			2 448	737	1 476	2,279	2,567
Jami joriy majburiyatlar	12 241	10 142	8 884	11 063	13 148	25,158	23,296
JAMI MAJBURIYATLAR	33 469	22 338	27 472	31 666	43 126	69,994	76,082
JAMI MAJBURIYATLAR VA KAPITAL	43 390	52 115	58 312	64 857	75 075	136,671	144,671

Qisqa muddatli aktivlarni tahlil qilganda, naqd pul mablag‘lari 234 milliard so‘mdan 3,737 trillion so‘mga yetgan, ya’ni likvidlik sezilarli darajada oshgan. Bu kompaniyaga qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash va operatsion barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

Tovar-moddiy zaxiralar esa 456 milliard so‘mdan 4,756 trillion so‘mga o‘sib, ishlab chiqarish hajmi va inventarizatsiya siyosatining kengayishini ko‘rsatadi. Debitor qarzdorlik 1,5 trillion so‘mdan 2,9 trillion so‘mga ko‘tarilgan bo‘lib, bu kompaniya mijozlar bilan moliyaviy aloqalarni samarali boshqarayotganligini bildiradi, lekin qarzdorlikning oshishi xavfini ham oshiradi. Umuman olganda, aktivlar tarkibidagi o‘shish kompaniyaning kapital investitsiyalarni kengaytirish va operatsion likvidlikni ta’minlash siyosatining natijasidir. 2025 – yilda uzoq muddatli aktivlarning ulushi jami aktivlarning 88,6 foizini tashkil etib, bu strategik rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni aks ettiradi.

Kapital va majburiyatlar strukturasi tahlil qilganda, ustav kapitali 14,6 trillion so‘mdan 22,25 trillion so‘mga oshgan bo‘lib, bu yangi aksiyalar chiqarish va kapitalni oshirish orqali amalga oshirilgan. Taqsimlanmagan foyda 2019 – yilda -4,7 trillion so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 – yilda 33,85 trillion so‘mga yetgan, bu kompaniyaning rentabelligi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ko‘rsatadi.

Uzoq muddatli majburiyatlar tarkibida qarzlar 17,85 trillion so‘mdan 39,55 trillion so‘mga oshgan, bu esa kompaniyaning uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirishdagi qaramligini bildiradi. Rezervlar va boshqa uzoq muddatli majburiyatlar esa nisbatan barqaror bo‘lib qolgan. Uzoq muddatli ijara majburiyatlari esa bir oz pasaygan bo‘lib, bu moliyaviy majburiyatlarni optimallashtirishning natijasidir.

Joriy majburiyatlar 2019 yilda 12,24 trillion so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilda 23,3 trillion so‘mga yetgan. Bu qisqa muddatli likvidlik va operatsion xarajatlarni qoplash zaruratini ko‘rsatadi. Savdo va boshqa kreditorlik qarzlarning oshishi kompaniyaning ish faoliyatining kengayishini aks ettiradi. Umuman olganda, kapital va majburiyatlar strukturasi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Uzoq muddatli majburiyatlar ulushi ortishi strategik investitsiyalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy barqarorlik va likvidlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilganda, likvidlik koeffitsiyenti (qisqa muddatli aktivlar / joriy majburiyatlar) 2019 – yilda 0,48 ga teng bo‘lsa, 2025 – yilda 0,67 ga yetgan. Bu kompaniya qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyatining oshganligini bildiradi. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti (jami kapital / jami aktivlar) 2019 – yilda 0,23, 2025 yilda esa

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 3-son 2026 yil

0,47 ga oshgan, bu kompaniya moliyaviy mustaqilligini sezilarli darajada oshirganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qarzdorlik ulushi (jami majburiyatlar / jami aktivlar) 2019 – yilda 0,77 bo‘lgan bo‘lsa, 2025 – yilda 0,53 ga kamaygan, bu kompaniya qarzdand foydalanishni optimallashtirganini va moliyaviy xavflarni kamaytirganini bildiradi.

Trend va strategik tahlilga e‘tibor qaratilganda, kompaniya 2021–2025 yillarda uzoq muddatli investitsiyalarni keskin oshirib, asosiy vositalar va qo‘shma korxonalariga investitsiyalarni kengaytirdi. Bu strategik rivojlanish va bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlashni ko‘rsatadi. Qisqa muddatli aktivlarning o‘sishi, xususan naqd pul mablag‘lari va inventarizatsiya hajmining oshishi, operatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan shartlarni yaratadi. Joriy majburiyatlar bilan solishtirganda likvidlik ko‘rsatkichining yaxshilanishi kompaniyaning qisqa muddatli moliyaviy barqarorligini oshirgan. Umuman olganda, 2019–2025 yillar davomida kompaniya uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish uchun qarzlarni kengaytirgan, shu bilan birga likvidlikni oshirish va taqsimlanmagan foydani yig‘ish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlagan. Kapital strukturasi optimallashtirilgan bo‘lib, kompaniya qarzga qaramlikni kamaytirib, strategik investitsiyalarni amalga oshirishga qodir ekanligini ko‘rsatadi.

2 – jadvalda keltirilgan, 2022–2025 yillar davomida korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur davrda realizatsiya hajmi, daromadlar tarkibi va xarajatlar dinamikasida muhim o‘zgarishlar yuz bergan. Xususan, 2022 – yilda neft, gaz va neft-kimyoh mahsulotlarini realizatsiya qilish hajmi 13 305 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa,

2- jadval

2022–2025 yillar uchun moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili. (milliard so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
Neft, gaz, neft mahsulotlari va neft-kimyoh mahsulotlarini realizatsiya qilish	13 305	14 855	14 316	14,208
Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar	136	137	95	
Daromad va xarajatlar tarkibi.				
Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025
Jami daromadlar	13 441	14 991	16 912	
Xarid qilingan neft, neft mahsulotlari va boshqa materiallar qiymati	(1 578)	(2 982)	3,129	2,931
Ishlab chiqarish xarajatlari	(2 892)	(3 640)	2,824	2,769
Soliqlar (daromad solig‘idan tashqari)	(2 370)	(2 774)	(1,577)	(1,768)
Eskirish va amortizatsiya	(2 316)	(2 860)	(2,388)	(2,472)
Debitorlik qarzlari bo‘yicha ta‘minot	(188)	280	273	
Umumiy va ma‘muriy xarajatlar	(619)	(887)	(857)	(1,134)
Mahsulotni tashish va realizatsiya qilish xarajatlari	(296)	(360)	(369)	-
Neft va gaz zaxiralarining kamayishi bilan bog‘liq xarajatlar	(406)	(390)	(675)	-
Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan foyda (zarar), sof	121	(19)	(178)	(12)
Boshqa operatsion xarajatlar	(230)	(332)	(249)	(201)
Jami operatsion xarajatlar	(10 775)	(13 964)	(11,732)	(11,671)
Operatsion faoliyatdan foyda (zarar)	2 666	1 027	4,006	4,507
Moliyaviy daromad	696	859	1,263	364
Boshqa kooperatsion daromadlar	1 191	2 581	3	5
Valyuta kursi farqidan zarar (foyda), sof	(259)	(1 309)	(439)	472
Moliyaviy xarajatlar	(1 487)	(2 562)	(2,880)	2,578
Soliq to‘lashdan oldingi foyda (zarar)	2 806	596	1,953	2,769
Daromad solig‘i	(320)	(28)	165	(858)
Sof foyda (zarar)	2 486	568	2,118	1,911

2023 – yilda bu ko‘rsatkich 14 855 mlrd so‘mga yetib, sezilarli o‘shish qayd etilgan. Biroq 2024 va 2025 – yillarda realizatsiya hajmida nisbiy pasayish kuzatilib, mos ravishda 14 316 va 14 208 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu holat bozor konyunkturasining o‘zgarishi, eksport hajmlarining qisqarishi yoki narxlar dinamikasi bilan izohlanishi mumkin.

Jami daromadlar hajmi esa 2022–2024 yillar oralig‘ida barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 13 441 mlrd so‘mdan 16 912 mlrd so‘mga qadar oshgan. Bu realizatsiyadan tashqari qo‘shimcha daromad manbalarining shakllanganini yoki mavjud faoliyat yo‘nalishlarining kengayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xarajatlar tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan. 2023 – yilda jami operatsion xarajatlar keskin oshib, 13 964 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda ularning ma‘lum darajada qisqarishi kuzatiladi. Bu esa xarajatlarni optimallashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarasi sifatida baholanishi mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari hamda soliqlar korxonalar xarajatlarining asosiy qismini tashkil etib, ularning o‘zgarishi umumiy moliyaviy natijalarga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, 2023 – yilda xarajatlarning daromadlarga nisbatan tezroq o‘shishi operatsion foydaning keskin kamayishiga olib kelgan. Natijada operatsion foyda 2022 yildagi 2 666 mlrd so‘mdan 2023 yilda 1 027 mlrd so‘mga tushib ketgan. Biroq 2024 yilda bu ko‘rsatkich 4 006 mlrd so‘mga, 2025 yilda esa 4 507 mlrd so‘mga yetib, sezilarli tiklanish kuzatilgan. Bu esa korxonalar tomonidan samarali boshqaruv qarorlarining qabul qilinganini hamda xarajatlar ustidan nazorat kuchaytirilganini anglatadi.

Moliyaviy faoliyat natijalari ham muhim o‘zgarishlarni aks ettiradi. Moliyaviy daromadlar 2022–2024 yillarda o‘shib borgan bo‘lsa-da, 2025 – yilda keskin kamaygan. Valyuta kursi farqlaridan kelib chiqadigan zararlar esa ayniqsa 2023 – yilda yuqori darajaga yetgan bo‘lib, bu milliy valyuta kursining o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. Keyingi davrda esa ushbu ko‘rsatkichning ijobiy qiymatga o‘tishi valyuta risklarini boshqarish mexanizmlarining takomillashganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, moliyaviy xarajatlarning yuqori darajada saqlanib qolishi korxonaning qarz majburiyatlari yetarlicha yuqori ekanligini anglatadi.

Sof foyda ko‘rsatkichlari tahlili korxonalar faoliyatida keskin tebranishlar mavjudligini ko‘rsatadi. 2022 – yilda 2 486 mlrd so‘mni tashkil etgan sof foyda 2023 – yilda 568 mlrd so‘mgacha kamaygan, bu esa tahlil qilinayotgan davr ichida eng past natija hisoblanadi. Biroq 2024 – yilda sof foyda 2 118 mlrd so‘mga tiklangan va 2025 – yilda 1 911 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu dinamikani “V-shaklli” tiklanish modeli sifatida baholash mumkin.

Umuman olganda, tahlil natijalari korxonalar faoliyatida daromadlar o‘shishiga qaramay, ayrim davrlarda xarajatlar boshqaruvida nomutanosibliklar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. 2024–2025 yillarda esa operatsion samaradorlikning oshishi, xarajatlarning optimallashtirilishi va moliyaviy natijalarning yaxshilanishi kuzatilgan. Shu bilan birga, valyuta risklari va qarz yukining yuqoriligi korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Kelgusida barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun xarajatlarni yanada qisqartirish, moliyaviy risklarni kamaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbekiston neft-gaz majmuasi mamlakat iqtisodiyotini shakllantirishda, shuningdek alohida tarmoqlarning uzoq muddatli rivojlanish rejalarini ishlab chiqishda hanuz muhim ahamiyat kasb etadi (maqola boshida ta‘kidlanganidek, O‘zbekiston neft-gaz sanoati yalpi ichki mahsulotning qariyb 16 foizini va byudjet daromadlarining 20 foizdan ortig‘ini tashkil etadi).”[2]

“Ukraina neft va gaz konlarining iqtisodiy samaradorligi nafaqat milliy ahamiyatga ega masala, balki global energetika tizimida ham muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada keltirilgan tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va tartibga solish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish orqali Ukraina o‘zining uglevodorod resurslari salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi mumkin.”[3]

“O‘zbekneftgaz” AJ va uning shubha korxonalari 2019–2025 yillar davomida moliyaviy jihatdan sezilarli o‘shish ko‘rsatgan. Jami aktivlar 43,39 trillion so‘mdan 144,67 trillion so‘mga oshib, kompaniyaning strategik rivojlanish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlagan. Uzoq muddatli aktivlarning keskin o‘shishi uzoq muddatli investitsiyalarga e‘tibor qaratilayotganini, asosiy vositalar va qo‘shma korxonalar investitsiyalarning ortishi esa diversifikatsiya va strategik hamkorlik siyosatini aks ettiradi. Qisqa muddatli aktivlar, xususan naqd pul mablag‘lari va tovar-moddiy

zaxiralar o‘shishi operatsion likvidlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Debitor qarzdorlikning oshishi mijozlar bilan moliyaviy aloqalar samaradorligini bildiradi, ammo qarzdorlik xavfini ham oshiradi.

Kompaniyaning kapital strukturasiidagi o‘shish va taqsimlanmagan foydaning ortishi rentabellik va moliyaviy mustaqillikni ta’minlaydi. Uzoq muddatli majburiyatlar o‘shishi strategik investitsiyalarni moliyalashtirishdagi qarz qaramligini ko‘rsatadi, joriy majburiyatlar bilan solishtirganda likvidlik koeffitsiyentining yaxshilanishi esa qisqa muddatli moliyaviy barqarorlikni oshiradi. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti 0,23 dan 0,47 ga oshgan, qarzdorlik ulushi esa 0,77 dan 0,53 ga kamayganligi kompaniyaning moliyaviy xavflarni optimallashtirganini ko‘rsatadi.

Kompaniya uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish bilan birga, likvidlikni oshirish va taqsimlanmagan foydani yig‘ish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamladi. Kapital strukturasi optimallashtirilgan va strategik investitsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Kelgusida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish, xarajatlarni yanada qisqartirish va moliyaviy risklarni kamaytirish kompaniyaning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir. Xulosa qilib aytganda, kompaniya moliyaviy barqarorlik, operatsion samaradorlik va strategik rivojlanish nuqtai nazaridan ijobiy o‘shish ko‘rsatmoqda, ammo valyuta va qarz risklarini doimiy boshqarish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бизнес—план АО «Узбекнефтегаз» на 2025 год.
<https://webdev.ung.uz/media/allfiles/files/7245decfc14549059028192f49448a2d.pdf>
2. J. Sh. Umurzakov. “ANALYSIS OF THE PERFORMANCE OF FINANCIAL AND ECONOMIC ACTIVITIES OF NATIONAL OIL AND GAS ENTERPRISES (ON THE EXAMPLE OF UZBEKNEFTEGAZ JSC)”. SOCAR Proceedings No.1 (2024) 138-142
3. Myron Firman. “THE ESSENCE AND STRUCTURE OF THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM FOR ENSURING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF OIL AND GAS PRODUCING FIELDS IN UKRAINE”. Economics and Region № 1 (96) – 2025 – Yuri Kondratyuk National University
4. Maxim V. Chernyaev, Aleksandra A. Boiko. “Economic efficiency of gas industry investment projects in Russia on the example of export gas pipelines”. ЭКОНОМИКА ОТРАСЛЕВЫХ РЫНКОВ. ISSN 2313-2329 (Print); ISSN 2408-8986 (Online) 2022 Vol. 30 No. 4 587–601
<http://journals.rudn.ru/economics>